



BAYRAMINGIZ MUBORAK BO'LSIN, AZIZ USTOZLAR!

1-OKTABR - O'QITUVCHI VA MURABBIYLAR KUNI

Po'lat o'tda toblanadi, odam mehnatda

Metallurg Minbari



O'zbekiston metallurgiya kombinati aksiyadorlik jamiyatining ko'p nusxali gazetasi

2024-yil 26-sentabr № 9 (1543)
Gazeta 1992-yil 7-martdan nashr etilmoqda

TA'ZIM SIZGA, AZIZ O'QITUVCHILAR

Dunyoda insonlar turli-tuman kasblarda faoliyat olib boradi. Ammo, mana shu kasblar ichida shunday bir kasb borki, u ham sharaflil, ham ma'suliyatlilik bilan ajralib turadi. Bu o'qituvchilik kasbidir.

Bugun biz, qaerda, qanday vazifada ishlamaylik, qachondir maktabda o'qiganmiz, ustozlar tarbiyasini olganmiz. Har birimizning qalbimizda bizga harf o'rgatib, savodimizni chiqargan o'qituvchilarga nisbatan samimiy ehtirom, hurmat joy olgan.



KEKSALARNI E'ZOZLASH - INSONIY FAZILAT

1 oktabrda Xalqaro qariyalar kuni ham nishonlanadi. O'zbek xalqida azal-azaldan keksalarga hurmat-e'tiborda bo'lish, ularni asrab-avaylab, maslahatlariga quloq tutish insoniylik xususiyatlaridan biridir. Keksalarga ehtirom, mehr-oqibat ko'rsatish ma'naviy hayotimizning tom ma'noda ajralmas qismiga aylangan. Mamlakatimizda yoshi ulug' insonlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, turmush sharoitlarini yanada yaxshilash, salomatligini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.



MURABBIYLIK MARTABASI - BUYUK SHARAFDIR

Yoshlarning yangi ish joyiga tez moslashib, kasblarini mukammal o'rganishlarida tajribali va malakali mutaxassis-ustozlarning o'рни beqiyos. Ular o'z ishlarininig ustalari bo'lish bilan birga shogirdlariga ish o'rgatish uchun kuch va vaqtini ayamaydilar. Bunday murabbiylar shogirdlari va jamoalarida katta hurmat-e'tibor qozongan, fidokor insonlardir.



BUGUNGI SONDA

TABRIK

Xizmatigingiz bebaho, aziz ustozlar! 2

EHTIROM

Ma'naviy hayotimizning ajralmas qismi 3

BUGUNNING GAPI

Manfaatlar to'qnashuvi 4

E'TIROF

Tilga ehtirom - vatanga ehtirom 5

JARAYON

Alohida o'rni bor 6

ACHCHIQ, AMMO OCHIQ GAPLAR

Bizni kemirguvchi illatlar 8

SO'RAGAN EDINGIZ

Mehnat shartnomasi bekor qilinadimi? 9

TAFAKKUR QIL

Bir usulli polvon 12

XIZMATINGIZ BEBAHO, AZIZ USTOZLAR!

Hurmatli o'qituvchilar, muhtaram ishlab chiqarish ustozlari, mehnat faxriylari, metallurglar!

Siz, azizlarni kombinat boshqaruvi, ko'p ming sonli metallurglar jamoasi nomidan O'qituvchi va murabbiylar kuni umumxalq bayrami bilan samimiy tabriklayman.

O'qituvchi va murabbiylar kuni har birimiz uchun qadrli bayramlardan biridir. Fidoyi ustoz va murabbiylarning ezgu xizmatlari tufayli yoshlarimiz har tomonlama barkamol bo'lib voyaga yetayotgani, fan va texnika, madaniyat va san'at, sport sohalarida qanday katta marralarni qo'lga kiritayotgani barchamizga cheksiz quvonch baxsh etadi.

Har bir inson hayotda qanday yutuqqa erishgan bo'lsa, ularda qadr don o'qituvchi va ustozlarining beqiyos hissasi borligini umrbod minnatdorlik bilan eslaydi. Yoshlarning vatanparvar va mehr-oqibatli, mard va halol bo'lib yetishishlarida, barchamizning ham ezgu maqsadlarimizning amalga oshishida yaqindan yordam bergan ustozlarga har qancha minnatdorlik bildirsak ham arziydi.

O'qituvchi va murabbiylar har bir inson hayotida muhim o'rin egallaydi. Ular tufayli navqiron avlod nafaqat zarur bilimlarni oladi, balki maqsad sari intilishni, hayot va ma'naviy qadriyatlarimizni o'rganadi.

Siz tufayli yoshlarning ilm-fanga, ijodga qiziqishi ortib bormoqda, biz

qanday go'zal yurtda yashayotganimizdan faxr, buyuk ajdodlarimizga munosib avlod bo'lishga intilish paydo bo'ladi.

"O'zmetkombinat" aksiyadorlik jamiyatida o'z tajriba va malakasini yosh ishchi-mutaxassislariga bajonidil o'rgatib kelayotgan ishlab chiqarish murabbiylari ko'pchilikni tashkil etadi. Ularning shogirdlari ko'plab tanlovlar va loyihalarda faol ishtirok etib, g'oliblar safidan ham o'rin olayotganligi barchamizni quvontiradi.

Hurmatli murabbiylar va ishlab chiqarish faxriylari, aziz o'qituvchilar!

Sizlarga ustoz va murabbiy sifatida samarali mehnatingiz uchun minnatdorlik bildiraman, munosib shogirdlar tayyorlayotganingiz uchun rahmat. Yoshlarda bilim, tajriba, mahorat, kuch-g'ayrat, eng yaxshi insoniy fazilatlarining namoyon bo'lishi - bularning barchasi kelajagimiz egalari uchun qilayotgan g'amxo'rlikingizning yorqin ko'rinishidir.

Barchangizga shu sharaflil yo'lda olib borayotgan olijanob faoliyatingizda va shaxsiy hayotingizda yangi yutuq va omadlar tilayman.

Xonadonlaringizga doimo tinchlik-xotirjamlik, fayzu baraka yor bo'lsin!

Hamisha sog'-omon bo'ling, aziz ustoz va murabbiylar!

Rashid PIRMATOV,

"O'zmetkombinat" AJ boshqaruv raisi - bosh direktor.



MEHRINGIZ ZIYOSI OFTOBDAN YORUG'

Ma'rifat bog'ini aylabon bo'ston,
Hur zamon bo'ldingiz tillarda doston.
Quyosh qalb sohibi - Siz komil inson -
Ustoz, ayomingiz muborak bo'lsin!

Siz erkli avlodning toshqin sururi,
Kasbu hunar koni, tilsimlar siri,
Ozod mamlakatning faxri, g'ururi -
Ustoz, bayramingiz muborak bo'lsin!

Onaday tabarruk, otaday ulug',
Shirin kalomingiz oyatday qutlug'.
Mehringiz ziyosi oftobdan yorug' -
Ustoz, ayomingiz muborak bo'lsin!

Fazlu mahoratda samosiz zilol,
Yulduzlar shogirdidir - o'zingiz hilol.
Shoir o'quvchingiz tilaydi iqbol -
Ustoz, bayramingiz muborak bo'lsin!

Abdusalom ABDULLA.

2024-YIL 27-OKTABR - OLIY MAJLIS QONUNCHILIK PALATASI VA MAHALLIY KENGASHLAR DEPUTATLARI SAYLOVI KUNI

YANGI TIZIM - YANGI IMKONIYATLAR

Saylov qonunchiligiga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarga ko'ra, endi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi saylovi aralash saylov tizimi asosida o'tkaziladi. Quyi palata deputatlarining 50 foizi, ya'ni 75 nafari odatdagidek mojaritar saylov tizimiga muvofiq bir mandatli saylov okruglaridan saylanadi. Qolgan 50 foizi, ya'ni 75 nafari proporsional saylov tizimi asosida yagona saylov okrugida partiyalar tomonidan ko'rsatilgan deputatlikka nomzodlar ro'yxati (partiya ro'yxati) bo'yicha saylanadi.

Demak, endi saylovchi saylovda ikkita byulleten orqali ovoz beradi: birinchisida aniq bir nomzodga ovoz bersa, boshqasida o'zi ishongan siyosiy partiyani belgilaydi.

Bu - mamlakatimizning milliy saylov tizimi tarixidagi g'oyat muhim yangilik. Aralash saylov tizimining afzalligi - o'zida amaldagi mojaritar va proporsional saylov tizimlarining eng ilg'or tamoyillarini uyg'unlashtirganida. Boshqacha aytganda, bir-birini to'ldiradi. Ayonki, mojaritar saylov

tizimi asosida muvaffaqiyat qozona olmagan partiyalarga o'zlari olgan ovozlarga mutanosib ravishda deputatlik o'rinlarini olishga hamda jamiyatda haqiqiy ko'ppartiyaviylik tizimini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Amaliyotga joriy etilayotgan proporsional

saylov tizimida saylovchi deputatlikka nomzodga emas, balki siyosiy partiyalarga ovoz beradi. Qonunchilik palatasidagi ellik foiz deputatlik o'rinlari siyosiy partiyalarga berilgan ovozlarga mutanosib ravishda siyosiy partiyalarning deputatlikka nomzodlar ro'yxatlari o'rtasida taqsimlanadi.

Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida amalga oshirilayotgan keng ko'lamlil, dadil va izchil islohotlarning ustuvor vazifalari va asosiy yo'nalishlaridan biri - inson qadrini yanada yuksaltirish, uning huquqlarini, jumladan, saylov huquqini har tomonlama va keng ta'minlashdan iborat.

O'zida ulug' hikmat, buyuk maqsadni mujasam etgan "Mening tanlovim - obod Vatanim!" degan shior ostida o'tishi joriy yildagi saylovlarga yangi mazmun va yuksak joziba bag'ishlaydi. "Inson qadri uchun" degan ustuvor tamoyilni ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Hasanboy SHOKIROV.



MA'NAVIY HAYOTIMIZNING AJRALMAS QISMI

Mamlakatimizda yoshi ulug' insonlarning munosib hayot kechirishi uchun barcha sharoit yaratilmoqda. Zero, ular yurtimizda tinchlik va osoyishtalikni mustahkamlashga, Vatanimizning iqtisodiy salohiyati yuksalishiga, farzandlar ta'lim-tarbiyasiga katta hissa qo'shganlar. Keksalarga hurmat-ehtimom, mehr-oqibat ko'rsatish ma'naviy hayotimizning ajralmas qismidir. Shuning uchun ham qariyalarni qadrlash O'zbekistonda davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan.

Bunga "O'zmetkombinat" AJda ishlab pensiyaga chiqqan mehnat faxriylari uchun yaratilgan shart-sharoitlar, g'amxo'rliklardan ham amin bo'lasiz. Faxriy metallurglarning sog'liklarini mustahkamlash, maroqli dam olishlari nafaqat ularning yaqinlari, balki kombinatning ham e'tiborida. Ularga kombinat tomonidan shahrimizdagi sanatoriy-profilaktoriy hamda "Metallurg" pansionatiga imtiyozli ravishda yo'llanmalar berilmoqda.

Pensionerlar va faxriylarning ijtimoiy va moddiy holatini yaxshilash, ularga maishiy, tibbiy, madaniy va boshqa turdagi xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishga ko'maklashish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Konchilik va metallurgiya sanoati faxriylari Kengashi tashkil etilgan edi. Endilikda metallurgiya sohasida ishlab pensiyaga chiqqanlar ushbu Kengash xizmatlaridan faol foydalanmoqdalar.

Konchilik va metallurgiya sanoati faxriylari Kengashining Bekobod shahridagi hududiy filia-



li ham bu yo'nalishlarda munosib ishlarni tashkil etib kelmoqda. Filial tomonidan faxriylar ishtirokida ma'naviy-ma'rifiy, madaniy, shuningdek, sport tadbirlari tashkil etilmoqda. Metallurgiya sanoati yosh mutaxassislarining tajriba va malakalarini oshirishda pensionerlarning boy kasb va hayot tajribasidan samarali foydalanish yo'lga qo'yildi.

Bekobodlik faxriylarning boy kasbiy tajriba va ko'nikmalaridan unumli foydalanilgan holda Federal davlat avtonom oliy ta'lim muassasasi "Milliy texnologik tadqiqotlar universiteti" "MIS-IS"ning Olmaliq shahridagi filialida hamda Toshkent davlat texnika universitetining Olmaliq filialida ma'ruzalar o'tkazish tashkil etilgan. Filial tomonidan professor va talabalar "O'zmetkombinat"ga taklif qilinib, ularni bo'linmalar faoliyat-

KEKSALARNI E'ZOZLASH, ULARGA HURMAT-EHTIROM KO'RSATISH XALQIMIZGA XOS EZGU FAZILATLARDAN. MAMLAKATIMIZDA YOSHI ULUG' INSONLARNI IJTIMOY QO'LLAB-QUVVATLASH, TURMUSH SHAROITLARINI YANADA YAXSHILASH, SALOMATLIGINI MUSTAHKAMLASHGA ALOHIDA E'TIBOR QARATILMOQDA. ZOTAN, NURONIYLARNI E'ZOZLAGAN KAM BO'LMAYDI.

**SHAVKAT MIRZIYOYEV,
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI.**

lari, ishlab chiqarish va texnologik jarayonlar bilan bevosita tanishtirish tadbirlari yaxshi bir an'anaga aylandi.

Filial xodimlari tomonidan pensiyadagi bemor faxriylar ahvolidan xabar olinmoqda. Zarur bo'lganda ularga moddiy yordam ko'rsatilmoqda. Jamoatchilik asosida faoliyat ko'rsatayotgan tibbiy komissiya xulosasiga ko'ra bemorlar shifoxonaga yotqizilib, dori-dormonlar, yotoq uchun mablag' ajratilyapti. Bir necha faxriylarning ko'zlarini davolash uchun jarrohlik amaliyotlari Kengash mablag'lari hisobidan amalga oshirildi.

Shuningdek, Respublika sanatoriylariga bepul yo'llanmalar ajratish rejali yo'lga qo'yilgan.

Bekobodlik metallurgiya sanoati faxriylarining yurtimizning qo'hna shaharlariga sayohatga borib kelishlari tashkil etilmoqda.

Faxriylardan 70 va undan katta yoshdagi yubileyilarini nishonlaganlarga Respublika Konchilik va metallurgiya sanoati faxriylari Kengashi raisi A. Farmonov imzosi qo'yilgan "Tashakkurnoma" va sovg'alar topshiriladi.

Kengash hisobida turgan mehnat faxriylarining barchasi ustoz va murabbiylarimiz. Ularni O'qituvchi va murabbiylar umumxalq bayrami bilan birga 1-oktabrda nishonlanadigan xalqaro qariyalar kuni bilan tabriklaymiz.

Qadrli ustozlar!

Baxtimizga doimo sog'-omon bo'ling, baxt va omad, tinchlik-xotirjamlik hamrohingiz bo'lsin!

Hasan XURSHIDOV.

FAXRIYLAR E'ZOZDA

Umumxalq bayramlari munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Konchilik va metallurgiya sanoati Faxriylar Kengashining Bekobod hududiy filiali tomonidan mehnat faxriylari uchun bayram dasturxonini tashkil etilishi an'anaga aylangan. O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi bayrami munosabati bilan ham Faxriylar Kengashining Bekobod hududiy filiali tashabbusi bilan "Baxt uyi"da bayram tadbiri o'tkazildi.

O'zbekiston Respublikasi Konchilik va metallurgiya sanoati Faxriylar Kengashi raisi o'rinbosari Bahodir Xalilov, "O'zmetkombinat" AJ boshqaruv raisi - bosh direktori Rashid Pirmatov, Bekobod shahar hokimi Nasrulla Boboyev, Faxriylar kengashi Bekobod hududiy filiali raisi Ilhom Qurbonovlar barcha yig'ilganlarni eng ulug', eng aziz bayramimiz bilan tabriklab, o'zlarining samimiy tilaklarini bildirishdi.

Jamoat ishlarida faol bo'lganlardan Rustam Malenskiy va Odina Rahi-



movalar "Faol faxriy" ko'krak nishoni bilan taqdirlanishdi. Shundan so'ng Metallurglar madaniyat saroyi badiiy havaskorlarining bayram konsert dasturi namoyish etildi. Ular go'zal kuy-qo'shiqlari, raqslari bilan barchaga yuqori kayfiyat baxsh etdilar.

MAYDONDA NURONIYLAR

Kombinatimizda ishlab pensiyaga chiqqanlarning sog'liklarini mustahkamlashda ularning sport bilan shug'ullanishlari muhim o'rin tutadi. Shuning uchun ham Konchilik va metallurgiya sanoati Faxriylar Kengashining Bekobod hududiy filiali tashabbusi bilan faxriylar o'rtasida turli musobaqalar tashkil etiladi.

Bu musobaqalarda nafaqat 60 yoshdan o'tgan keksalar, balki 70 yoshdan kattalar ham zavq-shavq bilan ishtirok etadilar. Yaqinda davlatimiz mustaqilligi bayramiga bag'ishlab faxriylar o'rtasida katta tennis, ayollar va erkaklar o'rtasida stol tennisi bo'yicha musobaqalar o'tkazildi.

Ko'tarinki kayfiyatda, qizg'in va do'stona ruhda o'tgan bahslarda nuroniy otaxon va onaxonlarimiz o'z kuch va g'ayratlarini sinovdan o'tkazishdi. Ularning bahslardagi ishtirokiga hattoki yoshlar ham havas qilgudek. O'z navbatida bu musobaqalarda o'zaro kuch sinashgan mehnat faxriylari salomatliklarini mustahkamlashlari bilan birga ko'tarinki kayfiyatga ham ega bo'ldilar. Kombinatda birga ishlaganlar, taniganlar bilan ko'rishib katta taassurotlar oldilar.

Musobaqa g'olib va sovrindorlari Respublika Konchilik va metallurgiya sanoati faxriylar Kengashining diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlanishdi.

QIZG'IN O'TDI

Yaqinda O'zbekiston Respublikasi Konchilik va metallurgiya sanoati faxriylar Kengashining Bekobod hududiy filiali tashabbusi bilan sportning shaxmat turi bo'yicha faxriy metallurglar o'rtasida musobaqa bo'lib o'tdi. Do'stona ruhda o'tgan aqllar jangi bahslari ko'tarinki kayfiyatda o'tib, qizg'in kurashlarga boy bo'ldi.

Yakuniy natijalarga ko'ra g'olib va sovrindorlar aniqlandi. Musobaqada Ahmadjon Quدراتov g'olib chiqdi. 2-o'rin Roman Boymurodovga va 3-o'rin Viktor Jo'rayevga nasib etdi. G'olib va sovrindorlar Faxriylar Kengashi tomonidan faxriy yorliqlar, medallar va esdalik sovg'alari bilan taqdirlanishdi.

MANFAATLAR TO'QNASHUVI: RIVOJLANISHGA JIDDIY PUTUR YETKAZADI

Manfaatlar to'qnashuvi dunyo miqyosida hal etilishi lozim bo'lgan eng katta muammolardan biridir. Ushbu illat har qanday davlat va jamiyatning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy putur yetkazadi, inson huquqi, erkinliklarining poymol bo'lishiga olib keladi. Shu bois unga qarshi kurash butun jahonda xalqaro ahamiyat kasb etib, jahon siyosatining muhim masalalari qatoridan joy olgan.

2024-yil 5-iyunda "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilindi va manfaatlar to'qnashuviga qarshi kurashishning huquqiy mexanizmi yaratildi. Ushbu qonunning asosiy maqsadi manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishdan iboratdir.

Manfaatlar to'qnashuvi – shaxsning shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning o'z lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari, qonuniy manfaatlarini o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan (mavjud manfaatlar to'qnashuvi) yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan (ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi) vaziyat.

Bu qonun manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va shu orqali umuman korrupsiyaga qarshi kurash jarayonini faollashtirishga ham ijobiy ta'sir etadi. Zero, aynan manfaatlar to'qnashuvi korrupsiyaviy holatlarning boshlang'ich nuqtasidir. Ya'ni manfaatlar to'qnashuvi jinoyatlarning asosi hisoblanadi.


Qonunning qabul qilinishi natijasida manfaatlar to'qnashuvini tartibga solishda davlat nazoratining

amalga oshirilishiga, davlat xizmatchilarining bevosita rahbarlari tomonidan manfaatlar to'qnashuvi holatlari yuzaga kelganda tegishli choralar ko'rilishiga, davlat xizmatchilari tomonidan sodir etilishi mumkin bo'lgan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldi olinishiga erishiladi.

Qonunda davlat tashkiloti xodimlariga nisbatan manfaatlar to'qnashuvining oldini olish bo'yicha cheklovlar, manfaatlar to'qnashuviga oid talablarni buzganlikning huquqiy oqibatlari, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ygan holda qabul qilingan va tuzilgan bitimlarni sud tartibida haqiqiy emas deb topish asoslari, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yganlik uchun javobgarlik choralari belgilandi.

Fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning va davlatning qonuniy manfaatlarini ustuvorligi, ochiqlik va shaffoflik, xolislik va korrupsiyaga nisbatan murosasizlik manfaatlar to'qnashuvining oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Biz – kombinat rahbar va xodimlari ham ushbu prinsiplarga qat'iy rioya qilib o'z vazifalarimizni bajarishimiz shart.

Xodimlarimiz o'z lavozim majburiyatlarini yoki xizmat vakolatlarini vijdonan bajarishi va ularning bajarilishiga ta'sir ko'rsatadigan yoki ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan o'z shaxsiy



manfaatlarini bilan bog'liq har qanday harakatlardan o'zlarini tiyishlari kerak. Xizmat vazifalarini bajarish chog'ida manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan shaxsiy manfaatdorlikka yo'l qo'ymaslik, mavjud manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan taqdirda, o'z ish yurituvdagi hujjatlar bo'yicha qaror qabul qilinguniga qadar o'zining bevosita rahbarini yoki maxsus bo'linmani xabardor qilishi zarur. O'zining bevosita bo'ysunuvidagi xodimlarni yoki boshqa xodimlarni bevosita yoki bilvosita o'zining shaxsiy manfaatlarini ko'zlovchi harakatlarga (harakatsizlikka) majburlashi mumkin emas.

Qonun bo'yicha barcha rahbar va xodimlar o'ziga ma'lum bo'lgan manfaatlar to'qnashuvi hollari to'g'risida xabar berishi kerak. Bunday holatlarni bilgan holda unga e'tiborsizlik qilish, mutasaddilarga xabar bermaslik javobgarlikka olib keladi.

Kombinatimiz manfaatlariga xizmat qilish barcha rahbar va xodimlarning asosiy vazifasidir. "O'zmetkombinat" AJ barcha mansabdor shaxslardan o'z vazifalarini adolatli va xolis bajarishini kutadi.

Akmal SHARIPOV,
"O'zmetkombinat" AJ boshqaruvi raisining umumiy masalalar bo'yicha o'rinbosari.

MEHNAT MUHOFAZASI VA XAVFSIZLIK TEXNIKASI

MEHNAT MUHOFAZASI – USTUVOR MASALA

"O'zmetkombinat" aksiyadorlik jamiyatida sog'lom va xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarning oldini olishga katta e'tibor qaratiladi. Bu borada kombinatning Sanoat xavfsizligi va mehnat muhofazasi departamenti tomonidan keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

Bugungi kunda kombinatda 9 mingdan ziyod ishchi-xodim mehnat faoliyatini olib boradi. Ulardan ikki ming nafarga yaqinini ayollar tashkil etadi. Departament xodimlari zimmasiga metallurglarning mehnatini muhofaza qilish, ularga mehnat sharoitini yaratish, baxtsiz hodisalar va yong'inlarning oldini olish hamda mehnat muhofazasi va sanoat xavfsizligi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdek mas'uliyatli vazifalar yuklangan.

Kombinatimiz "Sog'liqni muhofaza qilish va xavfsiz mehnatni ta'minlash menejmenti" ISO 45001:2018 xalqaro standart talablariga muvofiqligi bo'yicha sertifikatni olgan. Bu xalqaro standart talablariga asosan malakali auditorlar tomonidan tarkibiy bo'linmalarda "Mehnat muhofazasi bo'yicha" ichki audit o'tkazilib kelinmoqda.

Kombinat boshqaruvi raisi – bosh direktorning "Sanoat xavfsizligi, mehnat muhofazasi, yong'in xavf-

sizligi, kasbiy salomatlik va xavfsizlik menejmenti tizimi ishlarini bo'yicha 2024-yildagi vazifalar to'g'risidagi" 2-sonli buyrug'iga asosan, kombinat ishchi-xodimlari uchun munosib mehnat sharoitlarini ta'minlash maqsadida 47 banddan iborat chora-tadbirlar belgilangan. Bugungi kunda kombinatda ushbu chora-tadbirlarning ijrosi ta'minlanib kelinmoqda.

Bundan tashqari kombinat tomonidan ishchi-xodimlar jadval asosida tibbiy ko'rikdan o'tishlari va ularga tibbiy xizmat ko'rsatilishi uchun 2024-yilda 6 milliard 163 million 750 ming so'm mablag' ajratilgan. Ishchi-xodimlar maxsus kiyim, maxsus poyabzal va shaxsiy himoya vositalari bilan kombinat tomonidan bepul ta'minlanadi. Ular uchun 23 milliard so'm mablag' ajratilgan.

Kombinatda mavjud 14 ta oshxo-



nada metallurglar uchun tunu-kun xizmat ko'rsatilishi tashkil etilgan. Rahbar va mutaxassislarining mehnatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha tayyorlanishi, malakalari oshirilishi va bilimlari tekshirilishi tashkil etilgan. Doimiy faoliyatdagi komissiya tomonidan xodimlar bilimlari elektron tarzda sinalishi yo'lga qo'yilgan. Ularga yanada qulaylik yaratish maqsadida ushbu imtihonga tayyorgarlik ko'rishlari uchun tb.uzbekstell.uz platformasida yangi bo'lim ochildi. Xodimlar ushbu bo'lim orqali imtihon savolnomalari bilan tanishishlari hamda ushbu savollarga tayyorgarlik ko'rishlari uchun zarur qo'llanmalardan foydalanishlari mumkin.

Sanoat xavfsizligi va mehnat muhofazasi departamenti tomonidan 183 nafar kombinat tarkibiy bo'linmalari xodimlari gaz xo'jaligi va bosim ostida ishlovchi uskunalarga xizmat ko'rsatuvchi operator, yerdan boshqaruvchi yuk ko'tarish kran mashinisti, yuk iluvchi kasblari bo'yicha o'qitildi. Shuningdek, ushbu o'quv kursi jarayonida tinglovchilarning 20 soatlik o'quv dasturi asosida mehnat muhofazasi bo'yicha bilimlari oshirildi.

Kombinatimizning mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi bo'yicha xodimlariga motivatsiya berish maqsadida 28-aprel "Butunjahon mehnatni muhofaza qilish kuni" munosabati bilan 20 nafar muhandis va vakillar qimmatbaho sovg'alar va tashakkurnomalari bilan mukofotlandi. "Mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi bo'yicha eng yaxshi yosh muhandis" kasb-mahorat tanlovi o'tkazilib, 1, 2 va 3- o'rinni olganlar pul mukofoti va diplomlar bilan taqdirlandilar.

Gulmira TOSHMATOVA,
kombinatning Sanoat xavfsizligi va mehnat muhofazasi departamenti mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi bo'limi boshlig'i.

TILGA EHTIROM - VATANGA EHTIROM

ONA KABI MUQADDAS

1989-yil 21-oktabrda O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonuni qabul qilingan. Ushbu qonun o'sha davrda xalqimizning mustaqillik uchun qo'yilgan dastlabki qadami bo'lgan, desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. Qonun moddalarida "O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tili" ekanligi va O'zbekiston Respublikasi hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an'analari hurmat qilinishi belgilanganligi muhim ahamiyat kasb etgan.

2020-yil 10-aprelda O'zbekiston Respublikasining "O'zbek tili bayrami kunini belgilash to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi esa xalqimizning dilidagi, orzusidagi ish bo'lgan edi. Ushbu qonun bilan har yili 21-oktabr mamlakatimizda "O'zbek tili bayrami kuni" sifatida keng nishonlanadi.

Inson uchun Vatani, ota-onasi, oilasi qanchalik muqaddas bo'lsa, ona tili ham shunchalik azizdir. Hat-toki, go'dak ham dunyoni ona tili orqali anglaydi.

Shuning uchun doim til, millat, Vatani tushunchalari yonma-yon yuradi. Ona tili xalqni birlashti-

radi Tilsiz jamiyat rivojlanmaydi, taraqqiy topmaydi. Ona tili - millat ruhi, or-nomusi.

Shuning uchun ham har bir xalqning tili shu davlatning timso-li, mulki, ruhi, madaniy va ma'naviy boyligi, qolaversa, shu millatning madaniyati, urf-odati, turmush tarzi-ni ifodalovchi eng muhim vositadir.

Ma'rifatparvar bobomiz Alixon-to'ra Sog'uniyning quyidagi fikrlari e'tiborga molik: "Qaysi bir millatning ona tili o'z hojatini o'tayolmay, boshqa yot tillar oldida mag'lubiyatga uchrab tiz bukar ekan, unday millat ko'p uzoqlamay, insoniy tuyg'ularidan ajragan holda hayot

daftari ustiga inqiroz qalami chekilishi shubhasizdir. Unday millatlar yolg'izgina Vatandan emas, balki butun borlig'i bilan tarix yuzidan yo'qolishga majbur bo'ladi".

Shunday ekan Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, "Har birimiz davlat tiliga bo'lgan e'tiborni mustaqillikka bo'lgan e'tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona Vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz lozim".

Ona tilimizning xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini yuksaltirishda, uni milliy va umumbashariy tushunchalar asosida taraqqiy etgan tillar safiga qo'shishda har birimiz tilimizga chuqur hurmat bilan yondoshishimiz kerak. Zero, til bor ekan, millat barhayotdir.

Har bir ishda ko'zlangan maqsadga erishish uchun hamjihatlik katta

ahamiyat kasb etadi. O'zbek tili jonajon Vatanimizda yashayotgan barcha fuqarolarimiz uchun aziz va qadrlil tilga aylanishi, uning jozibadorligini oshirish uchun hammamiz birgalikda harakat qilishimiz, islohotlarni o'zimizdan boshlashimiz, tilimiz uchun jon kuydirishimiz zarur. Bunda daxldorlik tuyg'usi juda muhim o'rin tutadi. Ya'ni tilimizga bo'lgan hurmatimiz uyda, ko'chada, jamoat joylarida, o'quv-talim muassasalarida yaqqol sezilishi, so'zlashuv madaniyatimizda o'z ifodasini topishi shart.

Nigora ATAXANOVA,
"O'zmetkombinat" AJning
Ma'naviy-ma'rifiy ishlar
samaradorligini oshirish,
davlat tili to'g'risidagi qonun
hujjatlariga rioya etilishini
ta'minlash masalalari bo'yicha
maslahatchisi.

Ustoz deganda, har qaysi inson ko'nglida chuqur hurmat-ehtirom va cheksiz minnatdorchilik tuyg'ulari, shu bilan birga, hech qanday boylik bilan o'lchab, ado qilib bo'lmaydigan qarzdorlik hissi paydo bo'ladi. Bu yorug' olamda onadek mehribon, otadek g'amxo'r, har birimiz uchun aziz va mu'tabar bo'lgan ulug' zot - bu muallim va murabbiylardir. Ular har bir zamonda qadr topgan kasb egalari.

SIZGA TA'ZIM!

Mabodo bugun umumta'lim maktablariga tashrif etib qolsangiz, endigina 1-sinfda o'qiyotgan o'quvchi ham o'qituvchisini ustoz, deya talqin etadi. Shuningdek, yangi ishga kelganda unga kasb-hunar o'rgatgan, malakasini oshirishga yordamlashganlar ham murabbiy, ustoz, deya e'zozlanadi.

O'ylanib qolaman, nahotki, bunday insonlar haqida shunchalik ta'rif ko'p. Agarda biz tariximiz qatiga nazar tashlaydigan bo'lsak ham ustoz-shogird qanchalik qadrlil ekanligini anglab yetamiz. Goh Navoiy, goh Bobur, goh Mashrab asarlarini o'qiganimizda ularning o'z ustozlariga ko'rsatgan buyuk ehtiromlari naqadar ulug' ekanligini teran anglaymiz.

Yoshlarning barkamol shaxs sifatida kamol topishida, ularga ilm-fan asoslari va zamonaviy kasb-hunarlarini o'rgatish yo'lidagi ko'p yillik samarali mehnati, ularni Vatanga muhabbat, istiqloq g'oyalari sadoqat ruhida tarbiyalashda, jismoniy va ma'naviy jihatdan barkamol avlodni shakllantirishda hamda ijtimoiy hayotdagi faol ishtirokida o'qituvchi va murabbiylarimizning o'zni beqiyos hisoblanadi

O'qituvchi va murabbiylar kuni arafasida yana bir bor bizga bilim va ta'lim bergan, ish o'rgatgan o'qituvchi va murabbiylarimiz nomini o'zgacha hurmat bilan tilga olib, sizga ta'zim ustozlar, deymiz.

Ravshan RAHMONOV.

YOSHLAR MURABBIYLARI

Yosh metallurglar ustozlari asosiy mehnatlari bilan bir qatorda, shogirdlarining bilim va malakalarini oshirishga, kasblarining sir-asrorlarini o'rgatishga vaqtlarini ayamaydilar. Ana shunday murabbiylar kombinatimizda qadrlanadi. Ular o'z vazifalaridan tashqari yoshlarga yangi ish joylariga tezroq moslashishlari, kasblarining sir-asrorlarini o'rganishlariga ham yaqindan yordam beradilar.

Elektr ta'mirlash bo'linmasida ko'p yillar mehnat qilgan, tajribali mutaxassislar haqida gap ketganda elektr chilangari Muhammadolim Jamoldinov, elektrmontyorlar Farhod Hamdamov, Nasiba Hamroqulova, Baxtiyor Ortiqov kabilar nomi tilga olinadi.

Ular o'z ishining ustasi bo'lgan yuqori malakali mutaxassislariga bo'lib qolmay o'zlariga biriktirilgan yoshlarga ish o'rgatish uchun kuch va vaqtini ayamaydigan tajribali murabbiylar hamdir. Bugungi kunda ularning ko'plab shogirdlari murakkab va mas'uliyatli ishlarni ham bajara oladigan mutaxassislar qatoridan joy olishgan.



- Har bir kasbning o'ziga yarasha mas'uliyati, qiyinchiliklari, quvonchli tomonlari bo'ladi. Yoshlarning mehnatda yaxshi natijaga erishishlarida murabbiylarning o'zni katta bo'ladi.



Ustozlardan olingan bilim va ko'nikmalar, ularning amaliy yordam va maslahatlari har doim qiyin ishda yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etishga yoki mehnatda unumdorlikka erishishga yordam beradi. O'zingiz yoqtirgan ish bilan shug'ullanish insonga zavq, quvonch va g'ayrat bag'ishlaydi, mehnatda yangi marralar sari chorlaydi - deydi murabbiylar.



Kombinatimizda ana shunday murabbiylar ko'pchilikni tashkil etadi. O'z kasbining eng yaxshilari va tajribalilari bo'lgan bunday mutaxassislar mehnat faoliyatini endigina boshlayotgan yosh ishchilarning malakalarini oshirishga munosib hissalarini qo'shib kelayaptilar.

Furqat XOLIQULOV.

BO'LINMANING 50 YILLIGI NISHONLANDI

Xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish bo'linmasi tashkil etilganining 50 yilligi munosabati bilan "Baxt uyi"da bayram tadbiri o'tkazildi. Tadbirda "O'zmetkombinat" AJ rahbariyati, faxriylar, bo'lim rahbarlari va xodimlari ishtirok etdilar.

"O'zmetkombinat" AJ Boshqaruv raisi – bosh direktori Rashid Pirmatov va Respublika Konchilik va metallurgiya sanoati faxriylari kengashi raisi o'rinbosari Bahodir Xalilov tabrik so'ziga chiqishdi.

Shundan so'ng XIMICH bo'linmasida ko'p yillar samarali mehnat qilgan bugungi kunda pensiyada bo'lgan mehnat faxriylariga ham kombinat rahbariyatining tashakkurnomasi va esdalik sovg'alari topshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Konchilik va metallurgiya sanoati faxriylari kengashi tomonidan kombinat mehnat faxriylari Patxulla Badalov va Tamara Jo'rayevaga "Faol faxriy" ko'krak nishoni topshirildi.

Bayramona dasturxon atrofida, do'stona muhitda nuroniylar, bir-birlari bilan ish faoliyatlarini yodga olishdi. Ishlagan yillari xotiralarini bilan o'rtoqlashib, samimiy suhbatlashishdi.



AVTOTRANSPORT XIZMATINING ALOHIDA O'RNI BOR

"O'zmetkombinat" AJning ishlab chiqarish hayotida Yagona logistika markazining Avtotransport xizmati alohida o'rin tutadi. Bu xizmatning yuzga yaqin avtomobillari – yengil va yuk mashinalar, avtobuslar, traktorlar kabi transport vositalari kombinatning bir maromda ishlashini ta'minlashga safarbar etilgan. Avtotransport xizmati jamoasi hamisha belgilangan barcha vazifalarni ado etib keladi.

Joriy yilda O'zbekiston metallurgiya kombinatida avtotransport xizmati tashkil etilganiga 81 yil to'ldi. Dastlabki bosqichda 1943-yilda Avtotransport sexida 11 ta "GAZ-AA" yuk mashinasi, bitta "GAZ-A" yengil avtomobili va 1944-yil fevral oyida keltirilgan beshta "Ford" avtomashinasi bor edi, xolos.

Bugungi kunda Avtotransport xizmati korxonaning uzluksiz ishlab chiqarish jarayonini ta'minlovchi muhim bo'linmalaridan biriga aylandi. Xizmatning asosiy faoliyati xomashyo, tayyor mahsulotlar, odamlar, materiallarni kombinat hududi bo'ylab hamda O'zbekiston Respublikasi va qo'shni davlatlar hududi orqali ham tashishdan iborat.

Avtotransport xizmati tarkibida kombinat bo'linmalarini avtotransport bilan ta'minlovchi

ekspluatatsiya uchastkasi, ekskavatorlar, yuk ortuvchi tirkama va traktorlarga ega bo'lgan yo'l qurilishi texnikalari uchastkasi hamda mexanika-ta'mirlash ustaxonasi faoliyat ko'rsatadi.

Bo'linmada mavjud 100 ga yaqin avtomashina va maxsus texnikaning har birining texnik elektron pasporti bor. Undan transport vositasi qachon kapital ta'mirlangan, qancha yuk tashilgan va yoqilg'i sarflanganligi haqida barcha ma'lumotlar joy olgan. Bularning barchasi avtomobillar haqida tezkor ma'lumot olish imkonini beradi.

Ishda qo'llaniladigan ilg'or texnologiyalar tufayli hamkorlikda samarali ishlaydigan transportchilar jamoasi o'z vazifalarini ko'ngildagidek bajarib kelmoqda. Kunning istalgan vaqtida, har qanday ob-havo sharoitida ham haydovchilar o'z vazifalarini bajarib keladilar.

Xizmat iqtisodchilarining hisoblariga ko'ra, joriy yilning 1-sentabrigacha avtomobillarda yuk tashish hajmi 4 331 656 tonna/km., texnik tayyorgarlik koeffitsienti 92 foizni, avtosaroydan foydalanish koeffitsienti 70 foizni, yoqilg'i iqtisodiy 19127 tonnani tashkil etdi.

Avtotransportchilar mashinalarning texnik holatiga katta e'tibor qaratishadi. Ular har yili texnik ko'rikdan o'tkaziladi. Bu avtomobildagi texnik muammolar tufayli baxtsiz hodisalar xavfini kamaytiradi va yo'l harakati xavfsizligini ta'minlaydi.

Joriy yilda ham barcha avtomashinalar rejali tarzda texnik ko'rikdan o'tkazildi. Ta'kidlash joizki, bu tadbirni muvaffaqiyatli o'tkazish uchun zarur bo'lgan materiallar Avtotransport xizmatiga o'z vaqtida yetkazib berilganligi ham ko'rikdan yaxshi o'tilganligida muhim omil bo'ldi.

Bugungi kunda bu jamoada 280 nafardan

ortiq kishi ishlaydi. Ulardan ko'pchiligi tajribali avtotransport mutaxassislari hisoblanadi. Xizmatda o'zining ko'p yillik samarali mehnati bilan boshqalarga o'rnak bo'layotganlar ko'p. Ularning aksariyati korxonada 40 yil yoki undan ko'proq vaqt davomida ishlab keladilar.

Bular tokar G'ofur Eshonqulov, ta'mirlovchilangarlar Baxtiyor Abdulaxatov, Orzumuhammad Boyto'rayev, Abdulla Tillolov, haydovchilar Husan Aliqulov, Inom Tohirov, Bahodir Yusupov, Abdu Adumo'minov, Zafar Abdurazoqov Abduxoliq Isoqov, Madamin Umaraliyev, Ibrohim Saidov, Mehmon Xudoyorov, Zayniddin Ochilov, Komil Toshmatov, Ikrom Xoliqulov, Ne'mat Yo'ldoshev, Barot Islomov, Nosir Rahmonberdiyev, Isroil Umarov, Qurbon Nazarqulov, Shavkat Hasanov, muhandis-tahlilchi Matluba Azimova, dispetcherlar Dilrabo Usmonova, Munavvar Rasulova kabilar mehnati bilan hurmat-e'tiborga sazovor bo'lyaptilar.

Avtotransportchilar jamoasida malakali mutaxassislar va ustozlaridan qolishmay berilgan vazifalarga mas'uliyat bilan yondashib, ularni o'z vaqtida bajarishga intilayotgan umidli yoshlar ko'p. Ta'mirlovchi-chilangarlar Timur Hasanov, Jahongir Narzulayev, mexanik Nuriddin Julmatov, haydovchi Doniyor Rahmatov, smena dispetcheri Doniyor Xoliqulov kabilar yosh bo'lsalarda o'z kasblarining malakali ustalari qatoridan joy olishmoqda.

Avtomobil transporti hayotimizdan mustahkam joy olgan. Usiz korxonamizning ishini ham tasavvur qilib bo'lmaydi. Avtotransport vositalarining yaxshi ishlashi "O'zmetkombinat" aksiyadorlik jamiyati uzluksiz ishlashining kafolatlaridan biridir.

Ravshan BOLTABOYEV.



BUYUK AJDODLARIMIZ BUYUK MUHADDIS VA ALLOMA

Shu yilning 15-avgust kuni Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Imom Termiziy tavalludining 1200 yilligini keng nishonlash to'g'risida" qarori e'lon qilindi.

Islom dini rivojiga ulkan hissa qo'shgan buyuk allomaning to'liq ismi Muhammad ibn Iso ibn Savra ibn Muso ibn Zahhoq Abu Iso Sullamiy Zariyr Bug'iy Termiziy bo'lib, u hijriy 209-(melodiy 824) yili Termiz yaqinidagi Bug' (hozirgi Surxondaryo viloyatining Sherobod tumani hududida joylashgan) qishlog'ida o'rta hol oilada tavallud topgan.

Ilmga o'ta qiziqishi tufayli o'sha davrning ko'pgina ilmlarini, ayniqsa, hadis ilmini chuqur egallagan. Termiz, Samarqand, Marv va Markaziy Osiyoning boshqa yirik shaharlarida istiqomat qilgan mashhur ulamo va muhaddislar asarlarini qunt bilan o'rganagan. Yoshligidan ilmu-fanga tashna Imom Termiziy 850-yildan, ya'ni yigirma olti yoshidan boshlab uzoq yurtlarga, qator xorijiy mamlakatlar va shaharlarga safarlar qiladi. Jumladan, u Hijozda - Makka va Madina, Iroq, Xurosonning qator shaharlarida ko'plab muhaddis va ulamolar bilan uchrashib, muloqotda bo'lib, ulardan ta'lim oladi, qizg'in ilmiy munozara va bahslarda ishtirok etadi.

Hijriy uchinchi asr hadis ilmlarida buyuk yuksalish davri bo'lgan bir paytda Imom Termiziy Islom olamida olti eng mashhur hadis to'plamlaridan biri "Al-jome'us sahih" kitobini yozgan. Imom Termiziyning bu kitobi "Sahih" deb tan olingan olti nafar imomlarning ichida to'rtinchi o'rinda turadi.

Imomning bundan boshqa quyidagi asarlari ham mashhur: "Ash-shamoilul Muhammadiya", "Kitobuz zuhd", "Kitobut tarix", "Asmous sahoba", "Al-asmu val kuno", "Al-ilal".

U zot hadisni jamlashda va uni aniqlashda, yodlashda va zikr qilishda alohida bir maqomga ega edilar.

Muhaddis bobokalonimiz Imom Termiziyning asarlaridagi ravonlik faqat ziyoli kishilar uchun emas, balki har bir inson tushunishi mumkin bo'lishiga sabab ekanini alohida ta'kidlash joiz. Mashhur dunyo ulamolari qatoridan munosib joy olgan, buyuk ilm sohibi bo'lgan bobokalonimizning ibratli hayot yo'llari va boy ma'naviy merosini har tomonlama o'rganish ham ilmiy, ham amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega.

Zokir HASANOV.

Rabbim ota Nurjayeov umrining 40 yilini "O'zmetkombinat" AJga bag'ishladi. Tajribali po'lat erituvchi yuzlab shogirdlariga murabbiylik qilgan. Marten sexi faxriysi ko'plab orden va medallar sohibi. "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan sanoat xodimi" Rabbim Nurjayeovning bolaligi "Dalvarzin" dashtlarida o'tdi. Yigitlik burchini Rigada o'tab qaytgach 1959-yili metallurqlar jamoasida ish boshlab, 2000-yil 26-avgustgacha - 40 yil Marten sexida mehnat qildi.



ULAR KOMBINAT FAXRI

PO'LAT ERITISHDA TOBLANGAN

- Biz po'lat eritgan davrda pechlar yoniga maxsus kiyimlarda kirish bilan birga oyoq kiyimimiz ostiga qalin taxtalarni mixlab olardik. Bo'lmasa pech oldida turganimizda poyabzalimiz dosh beraolmay yonib ketishi mumkin edi, - deb xotirlaydi Rabbim ota.

Otashin haroratda pechlar yonida 40 yil mehnat qilish bu qahramonlik!

R. Nurjayeov shunday sharoitda ham boshqalarga namuna ko'rsatib ishlagan. Mehnati tufayli olgan mukofotlari ham buni tasdiqlab turibdi.

1975-yil po'lat eritishda yuqori natijalarga erishgani uchun 1976-yil 16-yanvarda "Jiguli" yengil avtoullovi bilan taqdirlangan. Buni otaxon shunday eslaydi: "Yig'ilish oxirida zavod direktori I. Muhammedov meni sahnaga chaqirdi. O'shanda ko'krangli "Jiguli" sahnada turardi. Butun zal qiyqiriqlarga to'lib ketgandi, hamma quvonib qarsak chalishar va meni tabriklashardi. Mana 48 yildan oshdiki bu mashinani boshqa rangga bo'yamadim". Darvoqe o'sha ko'krangli "Jiguli" hozir ham ota hovlisida turibdi.

Rabbim ota 1984-yilda "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan sanoat xodimi" faxriy unvoni bilan taqdirlangan. Ko'ksidan bir qator orden va medallar ham joy olgan. 1983-yil 26-mayda "Faxriy metallurg" unvoni bilan taqdirlangan. Shu bilan birga ko'plab faxriy yorliqlar olgan. 1980-1985-yillar O'zbekiston Oliy Soveti deputati bo'lgan.

Bugungi kunda po'lat eritishda obdon toblangan inson, Rabbim otaning o'g'illari,



qizlari, nabiralari, ko'plab shogirdlari "O'zmetkombinat" shuhratini yanada oshirish uchun mardona mehnat qilmoqdalar. Nurjayeovlar kombinatda eng taniqli sulolalardan biridir.

Irodasi po'latdek mustahkam po'lat erituvchi, kamtarin inson Rabbim ota Nurjayeov yaqinda 90 yoshga to'ldi. Otaxonga sog'liq-omonlik, baxt va tinchlik xotirjamlik tilaymiz.

Bunday insonlar kombinat boyligi va faxridir.

**Konchilik va metallurgiya sanoati
Faxriylar kengashining Bekobod
hududiy filiali.**

KUYDIRGI KASALLIGI VA UNING PROFILAKTIKASI

Viloyatimiz hududida ko'plab o'ta xavfli yuqumli kasalliklarning tabiiy o'choqlari mavjud. Shulardan bittasi kuydirgi kasalligidir. Kuydirgi - (Sibir yarasi) inson va hayvonlarga xos bo'lgan o'tkir yuqumli kasallik bo'lib, teri va teri osti to'qimalarida serozli va gemoragik shishlar paydo bo'lishi bilan xarakterlanadi.

Kuydirgi kasalligiga asosan qoramollar, qo'y va echkilar, ot, eshak hamda tuyalar moyil hisoblanadi. It, mushuk va yovvoyi yirtqich hayvonlar kasallikka kamroq chalinadi. Sovuq qonli hayvonlar va parrandalar kasallikka chalinmaydi. Shu bilan birga yovvoyi hayvonlar va yirtqich parrandalar (qarg'a, quzg'un va boshqa) kasallangan hayvon go'shtini yoki jasadini yegandan so'ng uzoq muddat davomida kuydirgi sporasini axlati va siydigi yordamida kasallik quzg'atuvchisini tashqi muhitga tarqatadi.

Kasallik manbaalari bo'lib kasal hayvonlar, ulardan olingan mahsulotlar (go'sht, sut, teri va boshqalar) kasal hayvonlar o'lgan joydagi zararlangan tuproq xizmat qiladi. Kuydirgi mikrobi spora shaklida kislorod yetishmagan va quruq tuproqlarda 100 yilgacha yashash xususiyatiga ega.

Kasallikning yashirin davri 1-3, ba'zan 8 kungacha davom etadi. Kasallik yashin tezligida boshlanganda hayvon birdan yiqilib, og'zi, burni, orqa teshikdan qon aralash suyuqlik (ko'pik) ajraladi va hayvon nobud bo'ladi. Oqqan qon ivimaydi.

Kasallik odamlarga kasal hayvonlarni parvarishlaganda, kasallangan hayvonlardan olingan teri, junga ishlov berganda, kasallangan hayvonlardan olingan sut va go'shtni iste'mol qilish oqibatida yuqadi.

Odamlarda kasallikning yashirin davri bir necha soatdan 14 kungacha davom etadi. Kasallik ko'proq (95-98 foizgacha) teri turida kechadi. Bunda mikroob tushgan joyda qizg'ish yoki ko'kimtir rangda dog' paydo bo'ladi, bu dog' papulaga, vezikulaga, pustula va yaraga aylanadi. Yaraning usti qora parda bilan qoplanadi va og'riqsiz kechadi. Yaraga yaqin bo'lgan limfa bezlari zararlanib, limfadenit, sepsis paydo bo'ladi. Bemorda quvvatsizlik, tana harorati ko'tarilishi, bosh og'rigi, bosh aylanishi, qusish, jigar va taloqning kattalashuvi kabi alomatlar kuzatiladi.

Kuydirgi kasalligidan saqlanish uchun:

- o'zingizga tegishli hayvonlarni hududingizda-

gi veterinariya muassasasida ro'yxatga qo'ying, bu hayvonlarning kuydirgiga qarshi samarali vaksinalar bilan o'z vaqtida emlanishi garovidir;

- hayvonlarda har qanday kasallik alomatlarini payqasangiz darhol veterinariya mutaxassisiga xabar bering, kasallikni o'zingiz aniqlash yoki davolashga urinmang;

- go'sht, sut mahsulotlarini faqat maxsus belgilangan joylarda (go'sht do'konlari, dehqon bozorlaridagi pavilonlar, maxsus - marketlar) xarid qiling, go'sht mahsulotlarida veterinariya ko'rigi haqida tamg'a bo'lishiga e'tibor bering, go'sht sotuvchisidan veterinariya ma'lumotnomasini talab qiling;

- birinchi navbatda xonadonlarda so'yiladigan chorva mollari veterinariya ko'rigisiz so'ymang, majburiy so'yilgan chorva mollari go'shtini iste'mol qilish xavfli ekanligiga e'tibor berish va so'yilgan taqdirida veterinariya xodimlarini xabardor qiling;

- shaxsiy gigiena qoidalariga qat'iy rioya qiling.

**Olim HAMROQULOV,
Bekobod shahar Sanepidbo'limi
Epidemiolog vrach yordamchisi.**

OCHIQ SUD
MAJLISIDA

JARIMA JAZOSI QO'LLANILDI

Ishchi-xodim o'z ish joyidagi jihozlar, ish qurollari, asbob-uskunalar va shu jumladan oziq-ovqat mahsulotlari hamda shularga o'xshash barcha narsalar uchun omonatdordir. Ular korxonaga mulki bo'lib, o'z xodimlariga ishonib topshirilgan. Ishchi-xodim ularni o'z qoidasiga ko'ra, ehtiyotkorlik bilan, mas'uliyat ila asrab-avaylab ishlatishi kerak. Beparvolik va ehtiyotsizlikdan yoki ataylab ularga talafot yetkazmasligi shart. Ularning biror biridan shaxsiy maqsadda foydalanishi mumkin emas.


Joriy yilning 17-iyul kuni jinoyat ishlari bo'yicha Bekobod shahar sudida o'ziga ishonib topshirilgan mahsulotga e'tiborsizlik qilib, "O'zmetkombinat" AJ mulkiga zarar yetkazgan huquqbuzar ishini ko'rib chiqdik.

2024-yil 10-iyun kuni kombinatda ishlovchi Zulfiya Murodova (ism-sharifi o'zgartirilgan) ovqatlanish kombinatining oziq-ovqat omboridan 160 kilogramm mol go'shtni oladi. Biroq kun yakunida go'shtning qolgan komissiya tartibida ko'rib chiqilganda 1 226 880 so'mlik 21,6 kilogramm mol go'shti komomadi aniqlanadi.

Sud majlisida huquqbuzar tariqasida so'roq qilingan Z. Murodova o'z aybiga iqrorlik bildiradi. Haqiqatdan ham u 10-iyun kuni 160 kilogramm go'shtni qabul qilib olib, 29,9 kilogramm go'shtdan 716 dona somsa va 284 dona go'shtli

rastegay mahsulotlarini tayyorlaganligini ma'lum qiladi. Joriy yil 7-iyun kuni go'sht tugab qolganligi uchun 12-sonli oshxonadan olgan 40 kilogramm go'shtni 10-iyun kuni bu oshxonaga qaytarganligini aytadi. Kombinat mutaxassisi tomonidan omborda go'sht torozida tortilganda 21,6 kilogramm go'sht nomalum sabablarga ko'ra yo'qolib qolganligiga iqror bo'ladi. Bu uning e'tiborsizligidan bo'lganligi, go'shtni kim olganligini bilmaganligini, bu ishdan chin ko'ngildan pushaymondaligi haqida ko'rsatma berib, sudan yengillik berishni so'radi.

Sud, ish hujjatlari bilan tanishib chiqib, huquqbuzarning aybi sud majlisida bergan iqrorlik ko'rsatmasidan tashqari, dastlabki surishtiruv organi tomonidan tuzilgan ma'muriy bayonoma, tushuntirish xatlari hamda to'plangan ish hujjatlariga asosan to'liq o'z isbotini topgan, deb hisobladi.



Sud, huquqbuzarga nisbatan jazo qo'llashda uning shaxsini, ayolligini, oilaviy sharoitini, aybiga iqrorligini, yetkazilgan moddiy zarar to'liq qoplanganligi kabilarni inobatga olib, unga nisbatan qonun sanksiyasida nazarda tutilgan jarima jazosini qo'llashni lozim deb hisobladi.

Huquqbuzar Z. Murodova O'zbekiston Respublikasi MJtKning 61-moddasi 1-qismi bilan aybli deb topildi. Unga bazaviy hisoblash miqdorining 1 baravari miqdorida - 340 000 so'm jarima jazosi qo'llanilishi haqida qaror chiqarildi.



BIZNI KEMIRGUVCHI ILLATLAR YOKI DABDABABOZLIK, ISROFGARCHILIK VA MANMANLIK KABI ILLATLARDAN QACHON XALOS BO'LAMIZ?!


YUZ YIL O'TSA HAMKI
O'ZGARISH YO'Q

Mahmudxo'ja Behbudiy 1915-yil "Oyina" jurnalining 13-sonida "Bizni kemiruvchi illatlar" maqolasida Turkiston xalqini kemiruvchi illatlar haqida shunday yozgan edi:

"Atomizdan mehribon Tangrimiz jalla va a'lo Qur'oni karimda "O'z qo'llaringiz ila o'zingizni tahlakaga otmangiz", der. Biz bo'lsa, badbaxtona va Xudoning amrig'a bo'yun qo'ymasdan kofirona bir suratda to'y va azo degan, yo'q bo'lusimizg'a sabab bo'lgan odatlarga boru yo'qimizni sarf va isrof etarmiz".

Afsuski, yuz yil o'tsa hamki aynan shu muammo dolzarbligicha qolmoqda. Hali hamon to'yu tomosha deb isrofgarchilik qilishimiz, shuhratparastlik, kibr ortidan millatni kemirayotgan bu illat oyog'imizga urilgan kishan bo'lib qolmoqda.

To'yni dabdabaga, pulning kuchini ko'rsatadigan marosimga aylantirishdan qanday naf bor? Bunga qasd qilgan kishi "zo'r" odamga emas, aksincha, oyog'i yerdan uzilgan noshukr kimsaga o'xshab qolayotganiga aqli yetarmikan?!

NEGA MUAMMOLARNI YANADA
KO'PAYTIRYAPMIZ?

E'tibor bilan kuzatayotgan bo'lsangiz, to'ylar, ma'rakalar, turli qadimiy marosimlarga yilma-yil, davrma-davr turfa "yangiliklar" qo'shilyapti. Bu bilan o'zimizga o'zimiz muammolarni yanada

ko'paytiraymiz.

To'ylardagi isrofgarchiliklarning oldini olish, kimo'zarchilikka barham berish, to'yu tantanalarni ortiqcha sarf-xarajatsiz, ixcham, chiroyli o'tkazish masalasi hatto davlat siyosati darajasiga ko'tarilganiga necha yillar bo'ldi. Bu haqda qarorlaru qancha-qancha hujjatlar bor, lekin sezilarli bir natija ko'rinmayapti. Nega? Chunki, avvalo davlat idoralarida ishlayotgan ba'zi mansabdor shaxslarning o'zlari xalqning ko'z o'ngida dabdabali to'y qilishayotir. Boshqalar ularga ergashib, do'ppisi boshiga tor kelishiga qaramasdan tirishib-tirmashib, dabdabali to'y qilish orzusiga tushib qolmoqda.

Qovun qovundan rang olaveradi: boylardan o'rtahollar, o'rtahollardan esa kam ta'minotlilar...

Ko'pincha moddiy manfaatlarni ko'zlab oila qurayotgan yoshlar hech qancha vaqt o'tmasdan "xarakterlari mos kelmay qolishi"ni ro'kach qilib ajralib ketayotganligi, go'daklar tirik yetim bo'lib qolayotganligi bot-bot uchrab turgan achchiq haqiqat. Shunga qaramay, "Hayotda bir martagina bo'ladigan to'y-marosimlarni to'kis o'tkazish kerak" degan fikrga mahkam yopishib olamiz-u, ma'naviy o'pirilishlar haqida ko'pam qayg'uravermaymiz.

UVOLDAN QO'QMAYMIZMI?

To'ylarimizdagi isrofgarchilikni ko'rib uvoldan qo'rqib ketasiz. Sarxil ovqatlar, ichimlikni ku aytmay qo'yaverasiz. Ovqatning yeyilgani yeyiladi, qolgan qoladi. Bo'lingan yarim-yorti nonlarning qanchasi ortib qoladi.

To'y dasturxoniga bezak qilib tirik baliqlarni



qo'yishni endi nima deb atashga ham hayronsan. Balki "To'qlikka sho'xlik"ning bir ko'rinishidir bu. Bu ishni shafqatsizlik, vahshiylik, noinsoniylik, yana nimalar deb atash mumkin?! Nahotki biz shu darajada insofsiz bo'lishga ulgurdik?!

Bir soatga falon so'mga keluvchi "birrov"chilar ham ko'paygan. San'atkorlar to'y mavsumi boshlanishidan manfaatdor. Bugun o'zbek shou-biznesidagi aksariyat xonandalar tezroq tanilib, to'y xizmatlariga borish uchungina san'atga qadam qo'yishyapti desak, mubolag'a bo'lmas. To'y ortidan ular yurtimizning eng boylari safidan joy olishgan. To'y qilganlar esa bir kunlik to'y deb oilasi bilan 3-4 yil qarz uzish bilan ovora bo'ladi.

To'y qiluvchilar ortiqcha sarmoyalarini insonlarning eng muhtojmandiga, kasalmandiga berib, qanchadan-qancha savobga qolishi haqida ham o'ylab ko'rsalar yaxshi bo'lar edi.

"ODAMLAR NIMA DEYDIMI?
YOKI..."

To'y o'tkazayotganlar o'zlariga "Odamlar nima deydi?" emas "Alloh nima deydi?" deb savol berishsin. Zora ana shunda ular to'g'ri yo'lga kirishar.

Avvalo, to'yda spirtli ichimliklarni qo'ymaslik kerak. Chunki nikoh halollik va poklik ramzidir. Unga Allah tomonidan harom etilgan narsa aralashdirilsa, halolga haromning kasri uradi va nikohning mustahkamligiga futur yetadi. Balki shuning uchun ham yosh oilalar o'rtasida ajrimlar ko'payib ketgandir. Isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik, noz-me'matlarni, sarpo-sidralarni, qizning sepini oshirib-toshirmaslik zarur. Chunki Allah isrofgarchilikni suymaydi va bu harom amaldir.

Mahmudxo'ja Behbudiyning "Bizni kemiruvchi illatlar" maqolasidagi xalqimizga yo'llangan quyidagi murojaat hamon dolzarbligicha qolmoqda: "To'y va ta'ziyag'a sarf qilinaturgon oqchalarimizni biz, turoniylar, ilm va din yo'lig'a sarf etsak, anqarib ovrupoyilardek taraqqiy etarmiz va o'zimiz-da, dinimiz-da obro'y va rivoj topar. Yo'q, hozirgi holimizg'a davom etsak, din va dunyog'a zillat va miskinatdan boshqa nasibamiz bo'lmaydur".

Ismat DIYOROV.

MEHNAT SHARTNOMASI BEKOR QILINADIMI?

Xodim qamalsa u bilan mehnat shartnomasi bekor qilinadimi?

I. Majidov.

Xodim ehtiyot chorasini sifatida qamoqqa olinsa, u bilan mehnat shartnomasi bekor qilinmaydi. Chunki, aybsizlik prezumpsiyasiga ko'ra jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sudda qonuniy tartibda, oshkora ko'rib chiqilib, uning aybi aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanmaydi.

Jinoyat-protsessual kodeksi 237-moddasiga asosan ehtiyot choralariga quyidagilar kiradi: munosib xulq-atvorda bo'lish to'g'risida tilxat; shaxsiy kafillik, jamoat birlashmasi yoki jamoaning kafilligi; garov; uy qamog'i; qamoqqa olish; voyaga yetmaganlarni kuzatuv ostiga olish uchun topshirish; harbiy xizmatchining xulq-atvori ustidan qo'mondonlik kuzatuv. Bir shaxsga nisbatan bir vaqtning o'zida ana shu choralardan faqat bittasi qo'llanilishiga yo'l qo'yiladi.

Jinoyat-protsessual kodeksining 243-moddasida qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzida

gi ehtiyot chorasini qo'llash tartibi belgilangan.

Qachon shaxsning aybi aniqlanib, sudning hukmi qonuniy kuchga kirgan taqdirda, basharti buning natijasida xodim avvalgi ishini davom ettirish imkoniyatidan mahrum etilgan bo'lsagina mehnat shartnomasi Mehnat kodeksining 168-moddasi 1-qismi 3-bandi bilan bekor qilinishi mumkin.

Ya'ni aytaylik xodimga sud hukmi bilan jarima yoki ahloq tuzatish ishlari jazosi tayinlandi, lekin xodim ishini davom ettirish



imkoniyatidan mahrum bo'lgani yo'q. Demak, bu holatda shartnomani bekor qila olmaymiz. Xodimga muayyan huquqdan mahrum qilish yoki ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanib, xodim ishini davom ettirish imkoniyatidan mahrum bo'lsa bu holatda shartnomani bekor qila bo'ladi.

Agar xodimga Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 29-moddasidagi ma'muriy qamoqqa olish tarzidagi ma'muriy jazo qo'llanilsa? Bu holatda 2 xil yechim bor.

Agar ma'muriy qamoq tayinlangan xodim lavozim yoki xizmat majburiyatlari bilan bog'liq bo'lgan huquqbuzarlik sodir etgan bo'lsa, bu xodim bilan mehnat shartnomasini Mehnat kodeksining 161-modda ikkinchi qismining 4 va 5-bandlari bilan bekor qilish mumkin.

Xodim lavozim yoki xizmat majburiyatlari bilan bog'liq bo'lmagan huquqbuzarlik sodir etgan bo'lsa (masalan, xodim dam olish kuni mayda bezorilik sodir qilib 15 sutka ma'muriy qamoq tayinlangan) shartnomani Mehnat kodeksining 168-moddasi 1-qismi 3-bandi bilan bekor qila olmasiz.



XODIM QANDAY YO'L TUTISHI KERAK?

Xodim o'z tashabbusi bilan mehnat shartnomasini bekor qilishni so'rab ariza yozganda ish beruvchi tomonidan qabul qilinmasa yoki e'tiborsiz qoldirilsa xodim qanday yo'l tutishi kerak?

B. Valiyev.

Mehnat kodeksining 160-moddasiga asosan xodim nomuayyan muddatga tuzilgan mehnat shartnomasini, shuningdek muddati tugaguniga qadar muddatli mehnat shartnomasini o'n to'rt kalendar kun oldin bu haqda ish beruvchini yozma shaklda ogohlantirgan holda bekor qilishga haqli. Ya'ni moddada mehnat shartnomasini bekor qilish uchun yozilgan arizaga ish beruvchining qo'l qo'yishi kerak degan qoidalar mavjud emas.

Ko'pchilik xodim tomonidan yozilgan ariza ish beruvchiga topshirilishi kerak deb o'ylashadi. Aslida bunday tartib mavjud emas. Xodim o'z tashabbusi bilan mehnat shartnomasini bekor qilmoqdam 14 kunlik ogohlantirish muddatini hisobga olgan holda ariza yozib, uni ishxona kanselyariyasiga ikki nusxada tayyorlab, bittasiga qo'l qo'ydirib olib topshirishining o'zi yetarli.

14 kunlik ogohlantirish muddati tugaganidan so'ng, xodim bemalol ishga chiqmaslikka haqli. Chuni Mehnat kodeksining 160-moddasida mehnat shartnomasini o'n to'rt kalendar kun oldin bu haqda ish beruvchini yozma shaklda ogohlantirgan holda bekor qilishga haqli ekani belgilangan. Agar ish beruvchi bunga qarshilik qilgan taqdirda bu boradagi mas'ul davlat organlariga yoki sudga murojaat qilinishi mumkin. O'n to'rt kunlik ogohlantirish muddati tugaganidan so'ng xodimga ish beruvchi tomonidan barcha foydalanilmagan ta'til pullari va boshqa to'lovlar to'lab berilishi shart.

XABAR BERMAGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK BORMI?


Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida xabar bermaganlik uchun javobgarlik bormi?

J. Bekjonov.

2024-yil 5-iyun kuni "O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi qonuni Prezident tomonidan imzolandi. Ushbu Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran olti oy o'tgach kuchga kiradi.

Shu qonunga ko'ra manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida xabar bermaganlik uchun bazaviy hisoblash miqdori (BHM)ning uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima belgilandi. Agarda ushbu xatti-harakatlar bir yil davomida takroran sodir etiladigan bo'lsa, BHMning besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima qo'llanilishiga sabab bo'ladi.

Shuningdek, mansabdor shaxslar tomonidan mavjud yoki ehtimoliy manfaatlar



to'qnashuvini tartibga solish yuzasidan choralar ko'rmaganlik uchun BHMning besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima belgilandi. Agarda ushbu xatti-harakatlar bir yil davomida takroran sodir etiladigan bo'lsa, BHMning o'n baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima qo'llanilishiga sabab bo'ladi.

TA'TILNI QISMLARGA BO'LIH MUMKINMI?



Yoz va qish faslarida zarur ishlarim bor. Shuning uchun ham mehnat ta'tilimni bir necha qismga bo'lib olsam bo'ladi?

N. Murodova.

Mehnat kodeksining 231-moddasiga asosan xodim va ish beruvchi o'rtasidagi kelishuvga ko'ra har yilgi mehnat ta'tili qismlarga bo'linishi mumkin. Bunda ushbu ta'tilning hech bo'lmaganda bir qismi o'n to'rt kalen-

dar kundan kam bo'lmasligi kerak. Mazkur normaga e'tibor berish kerakki bu modda har yilgi mehnat ta'tilini qismlarga bo'lishni tartibga soladi qolgan ta'tillarni emas.

Bu yerda ikkita shart amalga oshirilishi kerak. Birinchisi xodim va ish beruvchi o'zaro kelishishi va ikkinchisi, ta'tilning bir qismi o'n to'rt kalendar kundan kam bo'lmasligi kerak. Ya'ni xodimga ta'tilni bo'lib berishda uning bir qismi yaxlit 14 kundan kam bo'lmasligi kerak. Masalan, xodimning yillik mehnat ta'tili 21 kunni tashkil qilsa, ish beruvchi xodimga birinchi marta 5 kun keyin 2 kun ta'til berishi mumkin. Chunki $5+2=7$ $7+14=21$ bo'ladi yoki boshqacha tarzda bo'lishi mumkin faqat uning birinchi qismi yoki oxirgi qismidan qat'iy nazar bir qismi kamida 14 kunni tashkil qilishi kerak.

Yana bir narsani e'tiborga olib o'tish kerak xodimga ta'til har yilgi mehnat ta'tili har yili, ushbu ta'til berilayotgan ish yili tugaguniga qadar berilishi kerak.

Savollarga huquqshunos Inomjon ESHONQULOV javob berdi.

INSULTDAN QANDAY QILIB SAQLANISH MUMKIN?

Insult – qon quyuqlashishi hisobiga paydo bo'lgan tromblar natijasida miyada qon aylanishining buzilishidir. Zudlik bilan o'limga olib keluvchi insult kasalligi miyaning nafas olishi uchun javobgar qismlarga ta'sir qiladi. Agar bemorning yashashiga umid bo'lsa, shifokorlarga bir necha soatgina imkoniyat tarzida berilishi mumkin. Sababi insultning oqibatlari juda jiddiy, ya'ni falaj, nutq qobiliyatini yo'qotish kabi hollar kuzatilishi mumkin.

Insultning ikki asosiy gemorragik va ishemik turlari bor. Gemorragik insultda bosh miya to'qimasiga qon qo'yiladi. Ishemik insultda esa bosh miyani ozuqa bilan ta'minlovchi asosiy qon tomirlari tromboz (berkilish)ga uchraydi. Yoki mayda tomir tarmoqlarida spazm rivojlanadi.

Insult kasalligi ham tobora yosharmoqda. Endilikda yoshlar ham insult kasalligi haqida batafsil ma'lumotlar olib, uning oldini olish chora-tadbirlariga amal qilishi zarur.



ILK BELGILARI

Amerikalik olimlar insult kasalligining ilk belgilarini ma'lum qildi.

Insult kasalligida miya hujayralari kislorod yetishmasligi sababli bir necha daqiqalarda halok bo'ladi, ammo agar alomatlar o'z vaqtida aniqlansa, bemorga samarali yordam berish mumkin.

Insult o'lim sababi sifatida uchinchi o'rinda turadi. Shu sababli AQSH kasalliklarni nazorat va profilaktika qilish markazi mutaxassislari ushbu qo'rqinchli kasallikning ogohlantiruvchi beshta belgilari haqida ma'lum qilgan.

Belgilari.

1. Tananing biror qismi uvushib qoladi. Kutilgananda zaiflik yoki uvushishlar tananing faqat bir tomonida paydo bo'ladi.

2. Gapirish va idrok qilish bilan muammolar paydo bo'ladi, bemor sarosimaga tushadi.

3. Ko'rish qobiliyati bilan muammolar yuz beradi. Bitta ko'z ham, ikki ko'z ham birdek zarar ko'rish mumkin.

4. Yurishda muvozanat va koordinatsiya yo'qoladi.

5. To'satdan kuchli bosh og'riydi va bosh aylanadi.

Ushbu alomatlar kuzatilganda зудlik bilan tez yordamga murojaat qilishi zarur.

"Agar kasallik birinchi alomatlardan keyin aniqlansa va uch-soat ichida tashxis qo'yilsa, insultni davolashning eng samarali usullari yordam beradi", deydi markaz mutaxassislari.



BIRINCHI YORDAM

Insult xurujida eng avvalo bemorni karavotga qulay yotqizish kerak va nafas olishni qiyinlashtiruvchi kiyim tugmalarini yechib, havo oqimi bilan ta'minlashni yaxshilash zarur. Og'zidan, yasama tish (protez) lari bo'lsa, ularni yechib olib qo'yish, agar qusgan bo'lsa, og'iz bo'shlig'ini tozalab, qusuqni chiqarib tashlash kerak. Bo'yni qayrilib, umurtqa arteriyalariga qon kelishi qiyinlashmasligi uchun boshi va yelkalariga yostiq qo'yish lozim. Kasallik xurujining dastlabki daqiqa va soatlari eng qimmatli sanaladi, aynan shu vaqtda ko'rsatilgan tibbiy yordam eng samarali bo'lishi mumkin. Bu paytda eng muhimi iloji boricha tezlik bilan

bemorga malakali tibbiy yordam ko'rsatilishidir. Qanchalik tez yordam olinsa keyinchalik kasallik oqibati shunchalik yengilroq bo'ladi. Shularni hisobga olib bemorni tezroq shifoxonaga yetkazish chorasini ko'rish kerak.

BEMOR TUZALADIMI?

Insultni boshdan o'tkazgan bemorlarda kasallik qaytalanishi ehtimoli yuqori. Besh yil ichida kasal bo'lgan har to'rt kishidan bittasi yana insultni boshdan kechirishi mumkin.

Har bir bemor uchun tiklanish davri individualdir. Ba'zilar bir necha hafta ichida uylariga qaytadi, yana ba'zi bemorlar uchun tuzalib ketishga esa yillar talab qilinishi mumkin.

"Ba'zi insonlar butunlay tuzalib ketadi, yana ba'zilar esa uzoq muddatli yoki bir umrga nogiron bo'lib qolishi mumkin", - deydi mutaxassislari.

Afsuski, insultdan butunlay tuzalib, avvalgi ish faoliyatini boshlovchilar 10 foizga yetmaydi. Bemorlarda turli darajada ifodalangan nogironlik 80 foizga yetadi. Hech qanday o'tkir rivojlanuvchi kasallikda nogironlik bu darajada yuqori emas.

Bu achchiq haqiqat! Davolash faqat dori terapiyasini emas balki, parhez, bemor parvarishi, gimnastik mashqlarni ham o'z ichiga oladi. Dorilar bosh miyada qon aylanishini va miyadagi moddalar almashinuv jarayonlarini yaxshilaydi. Parhez ovqatlar, miya faoliyatini yaxshilovchi mashqlar hamda rehabilitatsiyadan ham foydalaniladi.

Bemorlar bevosita insultdan kam halok bo'ladilar, aksincha, uning asoratlaridan ko'proq vafot etadilar. Turg'un o'pka shamollashi va uzoq yotish oqibatida. Buning oldini olish uchun yotgan bemorga muttasil g'amxo'rlik ko'rsatib, uni parvarishlab turmoq kerak. Uni goh u, goh bu tomoniga ag'darib, ko'rpa-choyshablarning qatlanib qolishidan xabardor bo'lib turish kerak. Choyshablar toza va quruq bo'lmog'i lozim.



NIMALARGA

E'TIBOR QARATISH KERAK?

Insultga olib keluvchi omillarning deyarli barchasining oldini olish mumkin. Insultga olib keluvchi xatarli omillarga qonda xolesterin miqdori oshib ketishi, spirtli ichimliklarni iste'mol qilish va chekish, gipodinamiya, ya'ni kamharakatlilik, stress, ya'ni ruhiy zo'riqishlar, ateroskleroz, arterial gipertoniya, qandli diabet, yurak aritmiyasi kabi omillar kiradi. Insultga olib keluvchi eng xatarli omillardan biri – bu arterial gipertoniya, ya'ni qon bosimning oshib ketishi. Qon bosimi oshgani sari insultga uchrash darajasi ham oshib boraveradi.

XAVFNI QANDAY KAMAYTIRSA BO'LADI?

Gipertoniya insultning eng keng tarqalgan sabablaridan biridir. Shuning uchun qon bosimini muntazam ravishda tekshirib turish muhim. Qon bosimi holatiga asosan shifokor maslahatini olish kerak.

Ratsiondan yurak va qon tomirlari uchun foydali bo'lgan mahsulotlar joy olgan bo'lishi kerak: dukkaklilar, sabzavotlar, donlar, rezavorlar, yog'li baliqlar. Ular bosimni nazorat ostida ushlab turishga yordam beradi. Shuningdek, kamroq tuz va ko'proq kaliy iste'mol qilish yaxshidir.

Har bir insonni harakatsiz turmush tarzi yurak kasalliklari, diabet va boshqa sog'liq bilan bog'liq muammolarga olib keladi. Shu sababli yurak faoliyatini yaxshilash uchun tez o'rindan turish, yurish va cho'kkalab o'tirish kerak. Shuningdek, oddiy va yengil mashqlarga ham vaqt ajratish tavsiya etiladi.

Rejali tarzda doimo bajariladigan jismoniy mashqlar – ertalab va kechqurun piyoda yurish (20-30 daqiqa), yugurish, suzish, velosipedda sayr qilish kabi yengil jismoniy mashqlar insult rivojlanishining oldini oladi. Doimiy tarzda bajariladigan jismoniy mashqlar tomir devorlarida xolesterin to'planishini pasaytiradi, yurak-qon tomir faoliyatini yaxshilaydi.

Infarkt yoki insult bo'lib qolgan odamni so'rab-surishtirsangiz ushbu kasallik rivojlanishidan oldin qattiq siqilgan bo'ladi. Shuningdek, doimiy siqiladigan odamda gipertoniya kasalligi, qandli diabet, yurak ishemik kasalliklari ko'p kuzatiladi. Bularning barchasi esa insultga olib keluvchi kasalliklardir.

Aytish joizki, doimiy tarzda jismoniy mehnat va sport bilan shug'ullanadigan kishilar ruhiy-hissiy zo'riqishlarga kam duch kelishadi. Insultning oldini olish uchun bu o'ta muhim hisoblanadi.

Bu omillarning barchasini bartaraf qilish mumkin! Faqat odamlar shifokorlarning mana shu kabi tavsiyalariga amal qilishsa bo'ldi.

**Shifokor Mirzaburxon
DO'STMURODOV** tayyorladi.

BIZ SIZLAR BILAN FAXRLANAMIZ!

XVII Paralimpiya o'yinlari 28-avgustdan 8-sentabrgacha bo'lib o'tdi. Parij Paralimpiya o'yinlarida 22 sport turi bo'yicha bellashuvlar o'tkazildi.

Bu galgi o'yinlarga 65 nafar o'zbekistonlik para atletlar qatnashdi. Ular 9 ta sport turidan (para yengil atletika, para taekvondo, para o'q otish, para suzish, para kanoe, para akademik eshkak eshish, para dzyudo, para pauerlifting va para velosport) jami 113 ta litsenziyani qo'lga kiritishgandi.

Umumiy medallar hisobida o'zbekistonlik paralimpiyachilar 10 ta oltin, 9 ta kumush va 7 ta bronza medalini qo'lga kiritib, 13-o'rinni egalladi. O'zbekiston Parijdagi yozgi Paralimpiya o'yinlarida o'z tarixidagi eng yaxshi natijasini qayd etdi. Ushbu natija bilan O'zbekiston delegatsiyasi Osiyo mamlakatlari orasida Xitoy va Yaponiyadan keyin uchinchi, shuningdek, Markaziy Osiyo, Islom birdamligi va Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo mamlakatlar orasida eng yaxshi ko'rsatkichga ega bo'ldi.

Bundan tashqari, mazkur Paralimpiya o'yinlari jamoamiz uchun ko'plab jihatlari bilan yodda qoladigan, sportimiz tarixiga muhrlanadigan



bo'ldi. Jumladan, tarixda ilk bor 65 para atletimiz Paralimpiya o'yinlariga 113 ta litsenziya qo'lga kiritdi. Bu ham jamoamizning o'ziga xos rekordi hisoblanadi. Chunki paralimpiyachilarimiz 2016-yil Rio-de-Janeyro shahrida bo'lib o'tgan o'yinlarga 32 ta, Tokioda bo'lgan o'yinlarga esa 55 ta litsenziya qo'lga kiritgan. "Parij - 2024" musobaqasining yana bir ahamiyatli tomoni, delegatsiyamiz birinchi bor Paralimpiya o'yinlarida 9 ta sport turida ishtirok etdi, Paralimpiya o'yinlari tarixida birinchi marta para yengil atletikachilarimiz 16 medal bilan umumjamoahisobida 2-o'rinni, para taekvondochilarimiz esa 3 medal bilan umumjamoahisobida 3-o'rinni egaladi. Bunda para yengil atletika bo'yicha ayollar o'rtasida T11 klassida uzunlikka sakrash bahsida 5,24 metr natija bilan Paralimpiya o'yinlari rekordini o'rnatgan Asila Mirzayorova, 3 karra Paralimpiya o'yinlari g'olibi Husniddin Norbekov, eng yosh Paralimpiya o'yinlari sovrindori sifatida tarixga kirgan Shaxina Yigitaliyeva, 2 karra Paralimpiya o'yinlari g'oliblari yadro uluq-

tirishda Bobirjon Omonov va dzyudo bo'yicha Sherzod Namozov, para yengil atletikachilarimiz Tolibboy Yo'ldoshev, Nurxon Qurbonova kabi matonatli sportchilarimiz qo'lga kiritgan tarixiy g'alabalar katta ahamiyatga ega.

Shuningdek, biz uchun yana quvonchli tomoni hamshahrimiz Asad Toshtemirov 22 yoshida "Parij-2024" Yozgi Paralimpiya o'yinlarida para taekvondo bo'yicha 80 kilogramm vazn toifasida oltin medal sohibiga aylandi. Asad Toshtemirov 10 yoshidan Abror Karimov murabbiyligida taekvondo bilan shug'ullanishni boshlagan. 16 yoshda para taekvondo bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi a'zoliciga qabul qilingan. 20 yoshida Buyuk Britaniya mezbonlik qilgan Yevropa chempionatida kumush medal sovrindori bo'ldi. 21 yoshida Meksikada o'tgan Jahon chempionatida oltin medalni qo'lga kiritgan.

Millatimiz va xalqimizning jismoniy va ma'naviy salohiyatini yaqqol namoyish etgan, davlatimizning umumiy rivojlanish va insoniy taraqqiyot darajasini yorqin ravishda butun olamga ko'rsatgan paralimpiyachilarimiz xalqimizning faxridir.



FUTBOL: SUPERLIGA* FUTBOL: SUPERLIGA* FUTBOL: SUPERLIGA* FUTBOL: SUPERLIGA* FUTBOL: SUPERLIGA* FUTBOL: SUPERLIGA*

IMKONIYAT BOY BERILDI

Mavsum "Metallurg" uchun o'ta omadsiz kechayapti. Bekobodliklar o'z ulovini joyidan jildira olishmayapti. Deyarli har safar jamoa bir xil xatolar evaziga ochko yo'qotmoqda. Jamoada murabbiylarning almashinuvi ham bu nuqsonni hali bartaraf etmadi.

18-turda ham "Metallurg" xuddi "Lokomotiv", "Dinamo", "Surxon" jamoalariga qarshi safar uchrashuvlarida bo'lgani kabi g'alabaga yaqin turib, yakunda 3 ochkodan mahrum bo'ldi. Jamoa musobaqa jadvalining so'nggi pog'onasida borayotganligini inobatga olsak, bu o'yinlardagi duranglar qiymati mag'lubiyatga teng bo'layapti...

16-sentabrda bo'lib o'tgan 18-turda "Olimpik"-ka qarshi o'yinning birinchi taymida "Metallurg" yomon taassurot qoldirmadi. To'p nazorati, hududiy ustunlik bekobodliklar tomonida bo'ldi. Taymning so'nggi soniyalarida penaltidan kiritilgan gol ustunlikning mantiqiy yakuni bo'ldi. Burchakdan to'p o'yinga kiritilgan paytda mezbonlar himoyachisi Shahzodjon Ne'matjonovga nisbatan jarima maydoni ichida qo'pol o'ynadi. Vaziyatga VAR aralashgach, bosh hakam 11 metrlik nuqtani ko'rsatdi. Standart vaziyatdan Marko Milichkovich unumli foydalandi - 0:1.

Ikkinchi taymda esa "Metallurg" hisobni saqlab qolishga o'ynadi. Bu esa jamoaga qimmatga tushdi. Toliqqan futbolchilarni almashtirib, vaziyatni o'nglashga bo'lgan murabbiylar sa'y-harakati esa samara bermadi. Aksincha, zahiradan tushgan futbolchilar jamoa o'yinini kuchaytirmadi. Bu esa "Olimpik" foydasiga ishladi. Poytaxtliklar hakam tomonidan qo'shib berilgan daqiqalarda mag'lubiyatdan qutilib ketishdi - 1:1.

Turidan turga musobaqa jadvalidagi mavqei og'irlashib borayotgan "Metallurg" nihoyat mavsumdagi birinchi g'alabasini qo'lga kiritdi. G'alaba qozonganda ham amaldagi chempion bilan o'yinda zafar quchdi. Juda qiyin, mashaqqatli uchrashuvda iroda ko'rsatib, chiroyli yutuqni rasmiylashtirdi.

MAVSUMDAGI BIRINCHI G'ALABA

21-sentabr kuni bo'lib o'tgan o'yinda ikkita ko'ngilsiz an'anaga barham berildi. Birinchisi 2024-yilgi mavsumning 19-turiga kelgandagina ilk yutuq qo'lga kiritildi. Ikkinchisi "Paxtakor" bilan ketma ket 18 ta mag'lubiyatdan so'ng, 19-uchrashuvda g'alabani nishonladik. 19 raqamida "Metallurg" uchun mo'jizaviy timsol bordek, nazarimizda...

Bevosita uchrashuv tafsilotlariga to'xtaladigan bo'lsak, ilk soniyalardanoq har ikkala jamoa g'alaba ishtiyoqida maydonga tushganliklarini namoyish eta boshlashdi. Ammo "Metallurg" tezkor gol o'tkazib yubordi. Doston Hamdamovning o'ng qanotdan uzatgan to'pini Dragan Cheran ortiqcha qiyinchiliksiz boshi bilan "Metallurg" darvozasiga tushirdi - 0:1. Voqealar rivojining bunday tus olishi "Metallurg"ni ancha dovdiratib qo'ydi. Bekobodliklar raqib darvozasiga birinchi aniq zarbani o'ttizinchi daqiqaga kelganda berganligini shu bilan izohlash mumkin.

Ammo ikkinchi taymda biz maydonda boshqa "Metallurg"ni ko'rdik. G'alabaga chanqoq, olg'a intiluvchi, nomdor raqibdan cho'chimaydigan "Metallurg" uyg'ondi. 66-daqiqada Xudoyshukur Sattorov boshi bilan aniq zarbasi orqali hisobni tenglashtirdi. Oradan ko'p o'tmay jamoa sardori Zabi-xillo O'rinboyevning "oltin boshi" ish berdi. Sardorning qaytishi "Metallurg"ni hisobda



oldinga olib chiqdi - 2:1. Har ikkala golda Asadbek Sobirjonovning assistentligini alohida ta'kidlab o'tish lozim.

"Metallurg" mavsumdagi birinchi g'alabasini saqlab qolish paytida turgan bir paytda hakam tomonidan ikkinchi taymga qo'shib berilgan kompensatsiya vaqtining ilk soniyalarida standartdan ikkinchi golni o'tkazib yubordik. Buning ustiga bu paytga kelib jamoaning yetakchi o'yinchilari almashtirilgani ishqibozlarni tashvishga solayotgandi. Ana shu lahzalarda tarkibdagi barcha o'yinchilarning oxirigacha kurashganligi tahsinga sazovor. O'yinning eng oxirgi soniyalari o'tib borayotgan bir paytda Marko Milichkovich maydon markazidan "Paxtakor" darvozasiga g'alaba to'pini kiritdi - 3:2.

Bu g'alaba jamoaning ertangi kuniga umid uchqunlarini yana alangalatdi...

Kurashchi bo'lishni judayam istaydigan bir bola bor edi. Taqdirning sinovini qarangi, u avtohalokatda chap qo'lidan ayrildi. Ota-onasi ko'ngli o'ksimasin deb bolani bir murabbiyga topshirdi. Ammo bechora bolaning kayfiyati juda tushkun edi, umuman polvon bo'la olmayman degan gap xayoliga o'rnashib olgandi. Ustozi, agar u yetarli darajada shug'ullansa, hatto chempion ham bo'lishi mumkinligini aytdi. Bola bu gapga u qadar ishonmadi-yu, lekin yuragida umid uchqunladi.

Ustoz birinchi darsda unga o'ng qo'li bilan raqibni tutib, ustidan oshirib yerga urishni o'rgatdi. Ammo ikkinchi, uchinchi va undan keyingi darslarda ham faqat shu xilda shug'ullanishdi.

IBRAT IZLAGANGA IBRATDIR DUNYO BIR USULLI POLVON

Bola bir xil harakatni qaytaraverishdan zerikdi. Bir kuni ustoziga bu usulni yaxshi o'zlashtirib olganini, boshqa usullarni o'rganmoqchiligini aytdi. Ustozi esa bunga rozi bo'lmadi.

- Bu usulni eng zo'r darajada bajaradigan polvon sen bo'lishingni istayman, - dedi u.

Bola bir harakatni takrorlayverib, hadisini oldi, uni juda tez bajarishni o'rgandi. Biroq boshqa usullarni hozircha bilmasdi.

Bir kuni ustozini uni musobaqaga yozdirdi. Bola bu xabarni eshitib, esankiradi:

- Raqiblarim birinchi urinish-

dayoq meni ag'darishsa kerak, - dedi.

Ustozi esa:

- Sen bilganingni amalda qo'lla, shuning o'zi yetarli, - deb taskin berdi.

Bola ilk olishuvda raqibini qiyinchiliksiz yengdi. Keyingi raqiblarni ham mag'lub etdi.

Holbuki, bittagina usulni ishlatayotgandi. Ammo negadir raqiblari unga qarshilik ko'rsata olmasdi. Finaldagi raqibining gavdasi undan ikki baravar katta edi, shunga qaramay, uni ham yiqitdi.

Bolaning qalbi sevinchu hayratga to'la edi. Shunday kuchli polvon-



lar menday bitta qo'li yo'q raqibga qanday qilib osongina mag'lub bo'lyapti deb o'ylardi u. Ustozi bu holga tushuntirish berdi:

- O'g'lim, sen qo'llayotgan usul kurashdagi eng zo'r usullardan biri. Unga qarshi turishning bitta yo'li bor: u raqibining chap qo'lini tutib olish kerak...

HIKMATLAR XAZINASI

● Ertalab turganingda, kunduzi yurganingda, kechasi uxlaganingda hech qaering og'rimasa shuning o'zi baxt!

● Aql bilan mansabga erishish mumkin. Mansab bilan aqlga erishib bo'lmaydi.

● Dunyoda mukammal narsa yo'q. Hatto Muhabbat deb atalmish oliy tuyg'uda ham adolatsizlik bor. Kim qattiqroq sevsa, o'sha ko'proq izzatirob chekadi.

● Insonning bahosi bu dunyoda o'zi olgani bilan emas, o'zidan qolgan bilan belgilanadi.

O'tkir HOSHIMOV.

QISQA HIKOYALAR "O'QITAMAN"

U uchinchi qizining ham shartnoma asosida o'qishga kirganini eshitdi va mehnatda qavargan qo'llariga qaradi:


- O'qitaman. Yanada ko'proq ishlayman - dedi o'ziga o'zi pichirlab...

ANDISHA

Hamkasbining gaplarini eshitib, uning yolg'on gapirayotganligini bilib g'ashi keldi:

- Aldayapti. Chuqurroq surishtirsam darrov fosh bo'ladi. Shunday qilsammikin? Yo'q, xijolatga qo'ymay - dedi o'ziga xayolan.

M. Yusupov.



1962-yil turdosh korxonalar ichida birinchilardan bo'lib marten seximizda katta yutuqqa erishilgan. Uning nimaligini bilasizmi?

O'zbekiston metallurgiya zavodi direktori lavozimiga faqat bir marta muqobilik asosida saylov o'tkazilgan. Bu saylov qachon o'tkazilib, kim direktor bo'lgan?

"Kamera" (foto, video) o'zi asli qaysi tildan olingan va uning ma'nosini bilasizmi?

Qizning ismi 5 harfdan iborat. 1

BILIMINGIZNI SINAB KO'RING!

harf olib tashlansa meva nomi, 2 harf olib tashlansa hayvon nomi, 3 harf olinsa insonga eng kerakli narsa, 4 harf olinsa hayvonlarga yoqmaydigan narsa. Savol: Qizning ismi nima?

Katta yoshdagi inson tanasidagi kapillyar tomirlarning uzunligi qanchani tashkil qiladi?

Javoblarni gazetaning keyingi sonidan bilib olasiz.

Gazetaning o'tgan sonidagi savollarning javoblari.

* Bekobod shahrining bugungi kunda "Orom" choyxonasi joylashgan hududda metallurklar madaniyat va istirohat bog'i joylashgan bo'lib, bu bog'ning to'rida O'zbekiston metallurgiya zavodining "Hurmat taxta"si qo'yilgan edi.

* Korxonada qisqa muddatlarda po'lat zoldirlar ishlab chiqarish

yo'lga qo'yilganligi uchun 1994-yil 16-noyabrda Respublika Prezidentining Farmoni bilan kombinatning bir guruh ishchixodimlari Vatan mukofotlari bilan taqdirlanganlar.

* O'tgan asrning 60-70-yillariga kelib, bekobodlik metallurklar Hindiston, Misr, keyinroq Germaniya, Koreyaga borishib, ularga ish o'rgatishda o'z mahoratlarini ko'rsatishgan.

* Kamtarlik va odamlarning hojatini ravo qilish.

* Turli joylardagi daraxtlarga go'sht ilib qo'rganlar. Qaysi joyda daraxtga osilgan go'sht eng oxirida aynisa, ana shu yer shifoxona qurish uchun eng ma'qul joy hisoblangan.

* 10-asr oxiri 11-asr boshlarida yashagan musulmon olimi Ibn Al Xaysam ko'zning fiziologik optikasi ustida izlanib, undagi ko'z nuri va nurning sinishi hamda qaytarilishi xususiyatlarini kashf qilishi zamonaviy fotokameralarning yaratilishiga asos bo'lgan.

KELING, BIR KULISHAYLIK!



Ikki o'rtoq ko'chada gaplashmoqda. Birining sochi ancha to'kilgan.

- Obbo, oshna, fan nomzodi bo'ldim degin.

- Ha, fan nomzodi bo'ldim.

- Bu dissertatsiyani yozaman, deb sochingni yarmi to'kilib ketibdi-da?

- Nimasini aytasan, do'stim? Dissertatsiya yozishning o'zi bo'lmas ekan.

- Aytganday, nomzodlikni qanday mavzuda himoya qilding?


- "Soch to'kilishining oldini olish" mavzusida.

Maktab o'quvchisi ona tili ustozidan so'rabdi:

- Ustoz, o'zbek tiliga rus tilini aralashtirib gapirish mumkinmi?

Ustozi debdi:

- Konechno mumkin emas!



MASLAHATLAR

* Sut qaynatayotganda qozonga bitta qoshiq solib qo'yilsa, sut toshib ketmaydi.

* Qolgan ovqatni hech qachon alyumin idishda saqlamang.

* Elanmagan undan xamir qormang, jigar tiqilishi shundan.

* Suvni tindirib ishlating, tagidagi cho'kmasi toshga aylanadi buyrakda.

* Guruchni uvitishdan avval obdon o'ylang, bu qachongi guruch? Eski yilnikimi, yangisimi? Eski guruch ko'proq suvda turadi, ezilmaydi, palovi tanaga rohat, yangi guruch oz suv ichadi, tezda ezilishi mumkin.

* Guruchni tovoqqa solib yaxshilab yelpisangiz, ovqatingiz yaltirab pishadi.



MUASSIS:
O'zbekiston metallurgiya kombinati aksiyadorlik jamiyati.

WWW.uzbeksteel.uz

Muharrir:
Ismadiyor MAMATQULOV

TAHRIRIYAT: Bekobod shahar "O' zmetkombinat" aksiyadorlik jamiyatining Metallurklar madaniyat saroyida joylashgan.

Tel: 10-17, 70-214-19-24

Gazeta oyda bir marta chiqadi.

Gazeta tahririyat kompyuterida terilib, sahifalandi va "Niso nashriyot va matbaa uyi" MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: O'rta Chirchiq tumani "Mash'al" mahallasi, "Markaziy" ko'cha, 1-uy.

Sahifalovchi:
Inom Xojimurodov

Bosishga topshirish vaqti 17.00
Bosishga topshirildi-14.20
Adadi 600. Bichimi A-3.
ISSN 2181-645X
Gazeta "O' zmetkombinat" AJda bepul tarqatiladi.